



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Maktab o‘qituvchilarining malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojlarini  
diagnostikadan o‘tkazishni tashkil qilish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 25-yanvardagi PQ-4963-son qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 28-avgust kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishining 28-sonli bayonida o‘qituvchilar malakasini tabaqalashtirilgan holda oshirish tizimini joriy etishga doir berilgan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida **buyuraman:**

1. Maktab o‘qituvchilarining bilim va ko‘nikmalarini takomillashtirishga bo‘lgan kasbiy ehtiyojlarini to‘laroq qondirish maqsadida 2024-yil yanvar oyidan boshlab maktab o‘qituvchilarining malakasini tabaqalashtirilgan holda oshirish tizimini joriy etishga tayyorgarlik ko‘rish maqsadida joriy yilning 4 – 15-dekabr kunlari maktablarda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalari baholovchi testlar vositasida diagnostikadan o‘tkazilsin.

2. Quyidagilar:

maktab o‘qituvchilarini diagnostikadan o‘tkazish reja-jadvali 1-ilovaga muvofiq;

maktab o‘qituvchilarini diagnostikadan o‘tkazish jarayonlarini tashkil etish tartibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy-tadqiqot instituti (A.Ismailov) Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazlarini jalb qilgan holda:

joriy yilning 1-dekabrigacha maktab o‘qituvchilarining “Uzluksiz kasbiy ta’lim” elektron platformasida ro‘yxatdan o‘tishlari va diagnostika testini topshirishlari boyicha videoyo‘riqnoma tayyorlab, maktablarga etkazib bersin

hamda maktab o'qituvchilarining bilim va ko'nikmalarini baholovchi testlar bazasini shakllantirsin;

joriy yilning 4-dekabridan 15-dekabrigacha "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasi imkoniyatlaridan foydalangan holda maktab o'qituvchilarini diagnostikadan o'tkazsin;

joriy yilning 20-dekabrigacha diagnostika natijalarining tahlili asosida o'qituvchilarni kasbiy ehtiyojlariga ko'ra guruhlariga ajratsin va 2024-yilda maktab o'qituvchilari va rahbarlarining malakasini oshirish rejasini tasdiqlash uchun vazirlikka taqdim etsin;

joriy yilning 25-dekabrigacha uzluksiz kasbiy rivojlantirishning tabaqalashgan o'quv rejalari va dasturlarini ishlab chiqsin.

4. Qoraqalpog'iston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

tegishli hududdagi barcha maktablar o'qituvchilarini o'zlarining asosiy ish joylarida mazkur buyruqning 1-ilovasida belgilangan muddatlarda "Uzluksiz kasbiy ta'lim" elektron platformasida ro'yxatdan o'tishlari va diagnostika testini topshirishlarini tashkil etish;

maktab o'qituvchilari diagnostika testlarida ishtirok etgan vaqtda qoldiriladigan dars mashg'ulotlarini o'rnini almashtirish;

diagnostika testlarini joylarda tashkil etish jarayonida mazkur buyruqning 2-ilovasidagi tartibga qat'iy amal qilishni ta'minlash;

diagnostika testini topshirgan o'qituvchilar soni to'g'risida fanlar kesimida kunlik ma'lumotni vazirlikka va A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutiga kiritish vazifalari yuklatilsin.

5. Pedagog kadrlar salohiyatini oshirish va ularni tayyorlaydigan muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (N.Kuchkarova) hududlardagi maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda diagnostika jarayonlarini belgilangan muddatlarda va tasdiqlangan tartibga muvofiq tashkil etilishi hamda ularga barcha o'qituvchilar jalb qilinishini nazoratga olsin.

6. Mazkur buyruqqa asosan o'qituvchilarni diagnostikadan o'tkazish uchun test savollarini ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlar A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot institutining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan amalga oshirilsin.

7. Devonxona (D.Isxakova) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy boshqarma va bo'limlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha

va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent shahar hamda viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari hamda tegishli tashkilotlar va muassasalarga yetkazsin.

8. Ushbu buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari U.Begimkulov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**



**X. Umarova**

Toshkent sh.,  
2023-yil "14"- noyabr,  
540-son